


NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni-birlikda

2018-yil yanvar-iyun holatiga




- To'gridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning web sahifasi orqali
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy qabuldagi og'zaki murojaatlar

Viloyat statistika boshqarmasiga 2018-yilning yanvar-iyun holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **141 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **120 tasi** to'gridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **8 tasi** boshqarmaning web sahifasi orqali va **13 tasi** boshqarma rahbariyatining shaxsiy qabuldagi og'zaki murojaatlar hisoblanadi/

Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

Ulushi-foizda




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 51 tasi (jamiga nisbatan 36,2 foiz) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan, 16 tasi (11,3 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, 20 tasi (14,2 foiz) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan, 21 tasi (14,9 foiz) topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan, 33 tasi (23,4 foiz) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish
- Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- Topshirilgan hisobotidan ma'lumotlarni olish
- Boshqa murojaatlar

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili

Soni-birlikda




Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi Namangan shahridan **93** ta (o'tgan yilning shu davrida **119** ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Namangan tumanidan **10** ta, Yangiqo'rg'on tumanidan **6** ta, Kosonsoy tumanidan **1** ta, To'raqo'rg'on tumanidan **3** ta, boshqa respublikalardan **1** ta, Chust tumanidan **5** ta, Mingbuloq tumanidan **4** ta, Pop tumanidan **3** ta, Chortoq tumanidan **3** ta, Norin tumanidan **5** ta, Uychi tumanidan **3** ta, Uchqo'rg'on tumanidan **1** ta, boshqa viloyatdan **3** ta murojaatlar kelib tushgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xoxlaysizmi, quyidagi,

- 
- **Ishonch telefonlari**
 - (0369)227-84-84, (0371)230-84-84

- 
- **Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish**
 - (0369)227-85-08

- 
- Pochta manzili – namstat@umail.uz elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi

Nashr uchun mas`ul:

D.Qozoqov
(0369) 227-85-06